

Ekotizim xizmatlari va inson ta'sirini tasvirlash uchun estafeta o'yini

Umumiy bayon

- Har birida 5 o'yinchidan iborat ikkita jamoa (31 va 52-maktab jamoalari)
- O'yin "tuxum va qoshiq" uslubidagi estafeta poygasi sifatida o'tkaziladi, unda bolalar ekotizimdagi turlarni ifodalaydi va ob'yektni (ekotizim xizmatini ifodalovchi narsani) marraga olib borishi kerak, u yerda u odamlarga taqdim etiladi (ekotizim xizmati odamlarga taqdim etilgani kabi).

Kerakli ashyolar

- Bosh uchun rasmlar (2 ta to'plam)
- 2 x qoshiq
- 2 x stol tennisi koptokchalari (qoshiqlar ustiga qo'yish uchun)
- 10 ta bog'ich, ko'zni bog'lash uchun

Musobaqa borishi

- Ikkita jamoa (har birida 5 ta o'yinchi) marra chizig'idagi "odamlarga" "ekotizim xizmatlarini" (qoshiq ustida tennis koptokchalarini) yetkazib berish uchun estafetada ishtirok etadi.
- Bolalar boshiga turning tasviri tushirilgan rasmni taqadilar; bular ozuqa zanjirini emas, balki ekotizimdagi flora va faunaning xilma-xilligini ifodalaydi.

• 1-tur:

-Ikki jamoa odatdagidek raqobatlashadi, bir qatorda bir-biridan uzoqda turib, tuxum va qoshiqni estafeta usulida marragacha olib borishga harakat qiladilar - marraga birinchi bo'lib yetib borgan va "ekotizim xizmatlari"ni, ya'ni tennis koptokchasini qator oxiridagi odamning odamning qo'lga 1-bo'lib topshirgan jamoa bir ochkoni qo'lga kiritadi.

• 2-tur:

- 2-turda ekotizimlar turli xil buzilishlarga duchor bo'ladi.
- 1-jamoa sudralib yuruvchilar populyatsiyasining kamayishiga duchor bo'lmoqda - buni ifodalash uchun sudralib yuruvchilarning (ya'ni, kaltakesak va toshbaqa) rasmini boshiga taqib olgan ishtirokchilar estafetani bir oyog'ida bajarishlari (ya'ni, sakrash) kerak. Tennis koptokchasini tushurib yubormaslik uchun ular sekinroq harakatlanishlari kerak.
- 2-jamoadashasharotlar populyatsiyasi kamayib bormoqda - buni ifodalash uchun boshiga hasharotlar rasmini boshiga taqib olgan ishtirokchilar estafetani bir oyog'ida bajarishlari (ya'ni, sakrash) kerak. Tennis koptokchasini tushurib yubormaslik uchun ular sekinroq harakatlanishlari kerak.
- Marra chizig'iga birinchi bo'lib yetib kelgan va o'z ekotizim xizmatlarini chiziq yonida kutib turgan kishining qo'lga topshirgan jamoa ochko yutadi.

• 3-tur:

- 3-turda ekotizimlar bir xil buzilishlarga duchor bo'ladi.
- Har ikki jamoa ham yashash joyini yo'qotadi - buni ifodalash uchun har bir ishtirokchi ko'znini bog'lagan holda musobaqalashishlari kerak.
- Marra chizig'iga birinchi bo'lib etib kelgan va o'z ekotizim xizmatlarini chiziq yonida kutib turgan kishining qo'lga topshirgan jamoa ochko yutadi.

O'yin nimani anglatadi

- 1-bosqichda ikkala ekotizim ham yaxshi ishlamoqda va shu sababli ekotizim xizmatlarini odamlarga tez va samarali yetkazib bera oladi.
- Keyingi bosqichlar ekotizimdagi buzilishlar ekotizim xizmatlarini ko'rsatishga qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatiladi.